


7+



O'QITUVCHI

ABC



UO'K...

KBK...

M..

Muhammadali Mamadaliyev.

Kasblar. O'qituvchi [Turkum kitoblar] / M. Mamadaliyev.

– Toshkent: “Shimol yog‘dusi”, 2025. – 16 bet.

Loyiha rahbari:

Sherzod Mustafakulov

Aziz bolajonlar va hurmatli ota-onalar!




Ushbu mo‘jaz kitobimiz bolajonlarning kelajakda kasb tanlashga yaqindan yordam beradi. Rasmlar esa ularning tasavvurini boyitadi.

Bolalaringizni mutolaa zavqidan bebahra qoldirmang.

© M. Mamadaliyev, 2025

© “Shimol yog‘dusi”, 2025

ISBN ...






Ko'zлari mehrga to'la, nigohlari beg'ubor, tabassumi
samimiy, ovozi yoqimli kasb egalarini bilasizmi?
Men bilaman, bu kasb egalari o'qituvchilardir. Ismim
Ra'no, kelajakda o'qituvchi bo'lmoqchiman.



◎ ‘qituvchilik mashaqqatli va sharaflı kasb. Jajji o’quvchi bo’lib ilk bor maktabga borganimizda, yig’lab xarxasha qilganimizda onalarcha mehribonlik bilan qo’limizga qalam tutib, ilmgaga mehr uyg’otib, harf tanitgan, yozish va o’qishni o’rgatgan zot aynan ustozlardir.



Ustoz bo'lishni ko'pchilik orzu qilsa-da, lekin hamma ham o'qituvchi bo'lolmaydi. Nega deysizmi? Murabbiy bo'lish uchun, avvalo, yaxshi niyat qilish, so'ng o'z kasbini va bolalarni yoqtirishi kerak. Faoliyati davomida ham ular o'qiydi, izlanadi, o'z ustida ko'p ishlaydi.




○ ‘qituvchi bo‘lish uchun qaysi fanlarni bilish kerak?

Bu kasb egasi bo‘lishni niyat qilgan kishi hamma fanlarni qunt bilan o‘rganishi lozim. Chunki ko‘p bilimlarni egallagan inson kam bo‘lmaydi. Yillar davomida qaysi fan o‘qituvchisi bo‘lishiga qarab, o‘sha fanni chuqurroq o‘rganadi.




Har bir o'qituvchi oliy ma'lumotli bo'lgandan so'ng dars beradi. Buning uchun Oliy o'quv yur-tida pedagogika yo'nalishida tahsil olishi va diplomli bo'lishi lozim. Talabalar o'qish davomida dars o'tishni, ravon so'zlashni, pedagoglik va notiqlik mahoratlarini egallaydi.




Олий о‘кув юртining педагогика yo‘nalishini tamomlagan bitiruvchilar pedagog degan nomga sazovor bo‘ladilar. Keyin ular mакtab, kollej, litsey, institut va universitetlarda dars beradilar.



Shuningdek, o'qituvchilar amaliyotda ham faol bo'lishi lozim. Masalan, musiqa o'qituvchisi nazariya bilan birga musiqa asboblarni chalishi, qo'shiq aytishi va ovozi jarangdor bo'lishi kerak. Musiqa ustozи shu sohaga ixtisoslashgan məktəb, kollej, litsey va oliy o'quv yurtlarida dars beradilar.




Xorijiy tillar o‘qituvchilari esa mutaxassisligidagi tilda ravon so‘zlasha olishi, gramatikani yaxshiblishi va o‘quvchilarining har biriga o‘sha tilni o‘rgata olish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.



Kimyo fani o'qituvchisi bo'lish ham qiziqarli. Buning uchun kishidan chuqur bilim talab etiladi. Sababi, kimyoviy elementlarning har birini yoddan biliш, laboratoriya ishlarini to'g'ri bajarish lozim.



○na tili va adabiyoti fani o'qituvchisi bo'lish ham juda yaxshi. Adabiyot o'qituvchisi ko'plab badiiy kitoblar, she'rlar va hikoyalar o'qiydi. Yozuvchi va shoirlar hayotini o'rganadi.



Майотимиз давомида hisob-kitoblarga duch ke-lamiz. Bunday holatlarda adashmasligimiz uchun matematika fani va o'qituvchisi bizga yordam beradi. Ular bizga sanash, hisoblash, qo'shib-ayirish, ko'paytirish-bo'lishlarni o'rgatadilar.



Jismonan sog'lom inson, kamroq kasal bo'ladi. Bu-
ning uchun badantarbiya va sport bilan muntazam
shug'ullanishimiz kerak.

Jismoniy tarbiya murabbiylari jismoniy holatimizni
obilgan holda to'g'ri badantarbiya mashg'ulotlarini
bajarishni o'rgatadi. Turli sport o'yinlarini o'ynatib, ke-
lajakda sportchi bo'lishimizga sababchi bo'lishi mumkin.



“1-oktyabr - Ustoz va murabbiylar kuni” Vatanimizda alohida bayram sifatida nishonlanadi. U kun dam olish kuni etib belgilangan. Bu mamlakatimizda o’qituvchilarga bo’lgan yuksak ehtirom natijasidir.

Bayram munosabati bilan ko’plab o’qituvchilar mukofot, ko’krak nishoni, medallar va esdalik sovg’alari bilan taqdirlanadilar.



Yuqorida aytganimdek, ustozim kabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'laman. Chunki bolajonlarga dars berish menga judayam yoqadi. Shuning uchun bu kasbni tanladim va kelajakda albatta o'qituvchi bo'laman.